SAMARQAND VILOYATI PASTDARG‘OM TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 26-fevral | 67-7-101-Q/25 | Pastdarg‘om tumani hokimligi

Samarqand viloyat hokimining 2025-yil 7-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-455-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 7-7-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Samarqand viloyat hokimining 2025-yil 7-yanvardagi 7-7-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida;

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyat hokimining 2025-yil 7-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-455-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 7-7-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Maxmanazarov) 2025-yildan boshlab tuman byudjetiga davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar, ularning qo‘shimcha manbalarini hisoblanishini va 2025-yilda maqsadli ravishda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish uchun yo‘naltirilishini ta’minlasin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Maxmanazarov) tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkiloti rahbarlari bilan birgalikda 2025-yilda “tejamkorlik va barqarorlikni ta’minlash” tamoyili asosida byudjet mablag‘larini tejash va samaradorligini oshirish bo‘yicha barcha zaruriy choralarni ko‘rsin.

4. Byudjet xarajatlari parametrlarini shakllantirishda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmon vositalarini sotib olish, shuningdek, kommunal xizmatlar xarajatlaridan mablag‘lar yetishmovchiligiga yo‘l qo‘yish; mahalliy byudjet va uning qo‘shimcha manbalari hisobidan normativ-

huquqiy asosi bo‘lmagan qo‘shimcha shtat birliklarini saqlash; moliyalashtirish manbayi aniq bo‘lmagan tadbirlarni amalga oshirish qat’iyan taqiqlanganligi inobatga olinsin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Maxmanazarov) birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari hamda byudjet dasturlarining ijrosi yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsin.

6. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **Sh.Raxmanov**

Tuman hokimi **Sh.Raxmanov**